

OATB “Qishloq qurilish bank” ning 2014 yil I- yarim yilligi davomidagi faoliyati

OATB “Qishloq qurilish bank” ning 2014 yil I- yarim yilligi davomidagi faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2014 yil 17 yanvardagi Hukumat yig‘ilishidagi “2014 yil yuqori o‘shirish sur‘atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi” va 2013 yil 6 dekabrda tantanali yig‘ilishdagi “Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish-yorug‘ kelajagimizning asosiy omilidir” ma‘ruzalarida belgilab berilgan vazifalar hamda Vazirlar Mahkamasining 6-sonli yig‘ilish bayoni bilan banklar oldiga 2014 yilda qo‘yilgan ustuvor vazifalar ijrosini ta‘minlashga qaratildi.

Bank faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari

Bugungi kunda, bankning 42 ta filiallari, 50 ta minibank va 183 ta shahobchalari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ular orqali 447 mingdan ortiq yuridik va jismoniy shaxslar maqomidagi mijozlarga keng ko‘lamli bank xizmatlari ko‘rsatib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi “2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi PQ-1438-sonli Qarori talablaridan kelib chiqqan holda, bankning resurs bazasini mustahkamlash maqsadida hisobot davrida qat‘iy depozit siyosati yuritildi.

2014 yilning 1-yarim yilligi davomida bankning kapitallashuv darajasi hamda uzoq muddatli depozitlar hajmini oshirishga qo‘yilgan talablarni bankda bajarilishi, filiallarda aktivlar samarali boshqarish sohasida yo‘lga qo‘yilgan tizimni tahlili hamda filiallar tomonidan likvidlikka quyilgan talablarni bajarilish yo‘nalishlar borasida amalga oshirilgan tadbirlar natijasida, 2014 yilning 2-choragi yakuni bo‘yicha bankning sof aktivlari 3353,7 mlrd. so‘mni tashkil etib, yil boshiga nisbatan 879,5 mlrd.so‘mga yoki 35,5 foizga o‘tdi. Bank aktivlari tarkibida daromad keltiruvchi aktivlarning ulushi 89,4 foizni tashkil etdi.

Hisobot davrida, bankning sof majburiyatlari 3009,4 mlrd. so‘mni tashkil etgan holda harajatga tortiluvchi majburiyatlar 36,1 foizni tashkil etdi.

Bankning likvidlilik, ishonchlilik, to'lovga qobiliyatlilik kabi qator asosiy ko'rsatkichlarining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan siyosati natijasida, 2014 yilning 1 iyul holatiga bank kapitali yil boshiga nisbatan 5,2 foizga o'sib, 344,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

SHu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PQ-1438-sonli qarori talablarini ijrosini ta'minlash maqsadida olib borilgan ishlar natijasida, bankdagi aholi va xo'jalik yurituchi sub'ektlarning depozitlari yil boshiga nisbatan 162,8 mlrd. so'mga ortib, 2014 yil 1 iyul holatiga 675,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2014 yil 30 iyun holatiga milliy valyutada jalb qilingan banklararo depozitlar qoldig'i 206,5 mlrd. so'mni yoki jami sof majburiyatlarga nisbatan ulushi 6,9 foizni tashkil qilgan.

O'z navbatida, tijorat banklariga joylashtirilgan depozitlar qoldig'i 130,0 mlrd. so'm, va 2,0 mln. AQSH dollarni tashkil etgan.

Kreditlash amaliyoti bo'yicha

2014 yil I-yarim yilligi davomida bankning kapitallashuv darajasi va depozitlar hajmining o'sishi aktiv operatsiyalar hajmini oshirish, xususan kreditlash imkoniyatlarini yanada kengaytirishga mustahkam zamin yaratmoqda.

Hisobot yilida bankning "2014 yil Kredit siyosati" talablaridan kelib chiqib, bank faoliyatining asosiy daromad manbai hisoblangan bank aktivlari hajmi, tarkibi va daromadlilikini oshirishga alohida e'tibor qaratildi. Bunda, yirik korporativ mijozlar bilan yaqindan hamkorlik qilish o'z natijasini berib, bankning kredit quyilmalari o'tgan yil shu davrga nisbatan 61,9 foizga yoki 1079,6 mlrd. so'mga oshib, 2014 yilning 1 iyul holatiga 2821,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Jami kredit qo'yilmalarining 187,2 mlrd. so'm yoki 6,6 foizi sanoat, 137,5 mlrd. so'm yoki 4,9 foizi savdo va umumiy ovqatlanish, 178,3 mlrd. so'm yoki 6,3 foizi qurilish va transport, 74,3 mlrd. so'm yoki 2,6 foizi qishloq xo'jaligi tarmoqlariga yo'naltirilgan bo'lsa, 2129,5 mlrd. so'm imtiyozli ipoteka kreditlariga va 115,1 mlrd. so'm iqtisodiyotning boshqa turli sohalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga yo'naltirildi.

Hisobot davrida bank tomonidan iqtisodiyotga yo'naltirilgan kreditlar

hajmini oshirish va bankning investitsion jarayonlardagi ishtirokini yanada kengaytirish borasida muayyan ishlar olib borildi va natijada, 2014 yil I-yarim yilligi davomida bank tomonidan jami ajratilgan kreditlar miqdori 976,2 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2014 yilning 1 iyul holatiga jami kredit quyilmaning 92,4 foizi yoki 2607,9 mlrd. soʻm uzoq muddatli kreditlar va 214,0 mlrd. soʻm yoki 7,6 foizi qisqa muddatli kreditlar tashkil etmoqda.

Bank tomonidan iqtisodiy oʻsishni taʼminlash, yangi ish oʻrinlarini tashkil qilish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muhim oʻrin tutayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, ragʻbatlantirish va qoʻllab-quvvatlashga alohida eʼtibor qaratilib, “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” Davlat dasturi bilan belgilangan ishlar uzviy davom ettirildi.

Hisobot davri davomida kichik biznes subʼektlarini moliyaviy qoʻllab-quvvatlash maqsadida bankning oʻz mablagʻlari hisobidan 234,6 mlrd.soʻm miqdorida kreditlar ajratilib, belgilangan reja koʻrsatkich 112,3 foizga bajarildi.

Bank filiallari tomonidan hisobot davrida aholining faol qismiga oʻz biznesini tashkil etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida ajratilgan mikrokreditlar miqdori 67,2 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 26 yanvardagi “Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni toʻldirish yuzasidan qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-1047-sonli qarori ijrosini taʼminlash maqsadida respublika aholisini oziq-ovqat mahsulotlariga boʻlgan ehtiyojlarini barqaror taʼminlash, ichki isteʼmol bozorini mamlakatda ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari bilan toʻldirish, asosan qishloq joylarda zamonaviy, yuqori unumli texnika va texnologiya bilan jihozlangan qayta ishlovchi ihcham korxonalarini barpo etish, shu asosda yangi ish joylarni tashkil qilish, aholini ish bilan taʼminlash maqsadlariga bank tomonidan 43,9 mlrd. soʻm miqdorida kreditlar ajratildi va belgilangan reja koʻrsatkich 114,3 foizga bajarildi.

SHuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 28 yanvardagi “Mahalliy nooziq-ovqat isteʼmol tovarlari ishlab chiqarish kengaytirilishini ragʻbatlantirish borasidagi qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-1050-sonli qarori ijrosini taʼminlash maqsadida bank mijozlari tomonidan raqobatbardosh, yuqori sifatli nooziq-ovqat isteʼmol tovarlari ishlab chiqarishni va turlarini koʻpaytirishni ragʻbatlantirish, ichki

iste'mol bozorini nooziq-ovqat iste'mol tovarlari bilan boyitish, tayyor nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqaruvchi yangi, mahalliy korxonalarni tashkil etish hamda mavjudlarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash maqsadida bank tomonidan ajratilgan kreditlar 56,5 mlrd. so'mni tashkil etib, belgilangan reja ko'rsatkich 118,7 foizga bajarildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 6 fevraldagi PQ-2124-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida 2014 yilda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar Dasturi"da belgilab berilgan "Mening biznes g'oyam" ko'rik tanlovini o'tkazish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Savdo-sanoat palatasi, "Kamolot" YOIH va OATB "Qishloq qurilish bank" o'rtasida 2014 yil 26 fevralida qo'shma qaror imzolandi.

Ushbu qarorda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida 2014 yilning 11-aprelidan 7 mayiga qadar "Mening biznes g'oyam" tanlovining hududiy bosqichlari o'tkazildi va 12-17 may kunlari Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida tanlovning respublika bosqichi o'tkazildi.

Tadbir doirasida yoshlarning turli yo'nalishlar bo'yicha biznes loyihalari taqdimoti bo'lib o'tdi. YOshlarda tadbirkorlik ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan seminar-treninglar o'tkazildi. Unda malakali mutaxassislar tomonidan biznes-reja va uni ishlab chiqish yo'llari hamda bankdan kredit olish tartiblari haqida batafsil ma'lumot berildi.

Tanlovning Respublika bosqichi g'oliblari imtiyozli kredit olish huquqini beruvchi sertifikat va sovg'alar bilan taqdirlandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 18 apreldagi 70-sonli yig'ilish bayoni bilan Xududlarda yoshlar uchun 2014 yilda namunaviy loyihalar asosida ko'p qavatli uylar qurilishi dasturi tasdiqlandi. Ushbu dasturga asosan 2014 yilda quriladigan uylarning 6 tasi OATB "Qishloq qurilish bank" tomonidan moliyalashtirilishi belgilab berildi.

"Sog'lom bola yili" Davlat dasturi ijrosi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 19 fevraldagi "Sog'lom bola yili" Davlat dasturi" to'g'risidagi PQ-2133-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida "OATB "Qishloq qurilish bank" tizimida "Sog'lom bola yili" Davlat dasturi ijrosini ta'minlash bo'yicha 2014 yilda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar Dasturi" ishlab chiqildi va bank Boshqaruvining 2014 yil 14 martdagi 6-sonli yig'ilish qarori bilan tasdiqlandi.

Dastur talablari asosida oilalar salomatligini mustahkamlash, sog'lom

turmush tarzini shakllantirish, jumladan sog'liqni saqlash muassasalarning moddiy-texnika bazasi moddiy qo'llab-quvvatlash maqsadiga 2014 yil I-yarim yilligi davomida 1,3 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratildi.

Aholi farovonligini, uning real daromadlari o'sishini ta'minlash, bandlikni oshirish maqsadida hisobot davrida 234,6 mlrd.so'm kreditlar va 171,1 mlrd. so'm investitsiya mablag'lari ajratildi.

Ayollarning uy mehnatini engillashtirish va maishiy sharoitlarni yaratish maqsadida iste'mol tovarlari va ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun maishiy va oshxona elektr jihozlarini xarid qilishga 727,5 mln.so'm miqdorida iste'mol kreditlari ajratildi.

Kasb-hunar kollej bitiruvchilarining tadbirkorlik faoliyatlarini tashkil etish, ularning o'z bizneslarini yo'lga qo'yishlari hamda tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq loyihalarini moliyalashtirish uchun kasb-hunar kollej bitiruvchilariga 5,9 mlrd. so'm miqdorida imtiyozli mikro kreditlar ajratildi.

2014 yil I-yarim yilligi davomida yosh oilalarga 20,3 mlrd.so'm miqdorida ipoteka kreditlari ajratildi.

Hisobot davri davomida xotin-qizlar hamda yoshlarning ma'naviy qo'llab-quvvatlash maqsadida tadbirkor ayollar rahbarlik qilayotgan xo'jalik sub'ektlariga 33,9 mlrd. so'm miqdorida kreditlar ajratildi.

YAngi tashkil etilayotgan tadbirkorlik sub'ektlariga, oilaviy tadbirkorlar hamda kasanachilikka 10,9 mlrd. so'm miqdorida mikro kreditlar ajratildi.

Bank investitsion faolligini oshirish borasida

Iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish, eksport o'rini bosa oladigan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, real sektor korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash maqsadlariga joriy yilning 6 oyi davomida 171,1 mlrd. so'm miqdorida investitsiya kreditlari ajratildi.

2014 yil I-yarim yilligi davomida iqtisodiyotning barcha ustuvor tarmoqlarida faoliyat yurituvchi xo'jalik sub'ektlarining ko'plab investitsiya loyihalari moliyalashtirildi. Jumladan, sanoat sohasida 15,3 mlrd. so'm, qishloq xo'jaligi 8,5 mlrd. so'm, transport va kommunikatsiya sohasida 19,5 mlrd. so'm, qurilish sohasida 14,1 mlrd. so'm, moddiy-texnik ta'minot va maishiy xizmat ko'rsatish sohasida 8,9 mlrd. so'm, ijtimoiy sohasida 100,0 mlrd.so'm hamda boshqa sektorlarda faoliyat yurituvchi subektlarning 4,7 mlrd. so'm loyihalariga investitsiya kreditlari ajratildi.

Uy - joy qurilishini tashkil etish borasida

Prezidentimizning shaxsan tashabbuslari bilan bir necha yildan buyon qishloq aholisi turmush darajasini yaxshilash, zamonaviy qurilish materiallaridan foydalanib qishloqda sifatli uy-joylarni qurish, ijtimoiy soha ob'ektlarini barpo qilish hamda mamlakatimiz qishloqlari qiyofasini butunlay yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgan keng qamrovli qurilish dasturi amalga oshirib kelinmoqda.

Jumladan, 2009 yildan buyon respublikamiz qishloqlarida namunaviy loyihalar asosida uy-joylar qurilishi boshlangan va bugungi kunda ham qurilish ishlari jadal sur'atlarda olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va Vazirlar Mahkamasining alohida qarorlari bilan respublikamizning qishloq tumanlarida uy-joylar qurilishi uchun ajratilgan massivlarida 2009-2013 yillar davomida 31739 ta uy-joylar qurilishi uchun aholining 1256,9 mlrd. so'mdan ziyod mablag'lari hamda markazlashtirilgan mablag'lari hisobidan 1822,1 mlrd. so'm imtiyozli ipoteka kreditlari ajratildi. Bank tomonidan ajratilgan imtiyozli ipoteka kreditlarining 532,0 mlrd. so'mi Osiyo taraqqiyot banki kredit liniyasi hisobidan amalga oshirildi.

Ushbu qurilish Dasturini davom ettirish maqsadida, 2013 yilning 15 noyabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo'yicha uy-joylar qurilishining 2014 yil Dasturi to'g'risida"gi PQ-2068-sonli qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorga asosan 2014 yil Dasturiga muvofiq respublikamizning 151 ta qishloq tumanlarida joylashgan 330 ta er massivlarida umumiy maydoni 1534,7 ming kv.metr bo'lgan 1760,0 mlrd. so'mlik 11000 ta uy-joylar qurilishi rejalashtirilgan.

Yuqoridagi qaror ijrosi yuzasidan 2014 yilning 7 fevralida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 68-f-sonli farmoyishi qabul qilinib, qishloq joylarda 2014 yilda quriladigan 11 000 ta uy-joylarning 7 981 tasi ATB "Qishloq qurilish bank", 2019 tasi TIF "Milliy bank" va 1000 tasi ATB "Ipoteka-bank" ishtirokida moliyalashtirishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 15 noyabrdagi PQ-2068-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida bank tomonidan joriy yilning birinchi yarim yili davomida bir qator ishlar amalga oshirildi. Xususan,

OATB "Qishloq qurilish bank" tomonidan moliyalashtirilayotgan 7981 ta uy-joylar uchun 7920 ta fuqarolar tomonidan 318,3 mlrd. so'm yoki 98,8 foiz miqdorida boshlang'ich badal mablag'lari shakllantirildi. Ammo, boshlang'ich

badal shakllantirilgan 7920 ta fuqarolardan 7736 tasi to‘liq shakllantirilgan holda, 61 ta (Surxondaryo viloyatida 53 ta va Sirdaryo viloyatida 8 ta) fuqarolarning boshlang‘ich badallari hanuzgacha umuman yig‘ilmagan.

2014 yil 1 iyul holatiga 2014 yil Dasturi bo‘yicha ATB “Qishloq qurilish bank” tomonidan moliyalashtirilayotgan 7981 ta uy-joylardan 7902 tasiga moliyalashtirish ochilgan.

Joriy yilning 1 iyul holatiga, ushbu uy-joylar qurilishiga jami 947,5 mlrd. so‘m miqdorida, shundan 451,2 mlrd. so‘m aholi mablag‘lari, 494,1 mlrd. so‘m imtiyozli ipoteka kredit mablag‘lari “Qishloq qurilish invest” IKning maxsus hisob raqamlariga pudrat tashkilotlarini moliyalashtirish uchun o‘tkazib berildi. SHu bilan birga, bugungi kunda 2014 yil Dasturi bo‘yicha ATB “Qishloq qurilish bank” tomonidan moliyalashtirilayotgan uy-joylar uchun aholining 146,4 mlrd. so‘m yoki 73,0 foiz miqdoridagi yakuniy badal mablag‘lari shakllantirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 18 noyabrdagi “2014 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining investitsiya dasturi to‘g‘risida”gi PQ-2069-sonli qarorini ijrosi yuzasidan ATB “Qishloq qurilish bank” va “O‘zmilliybank” bilan birgalikda 2014 yilda qishloq joylarda quriladigan yakka tartibdagi uy-joylarni moliyalashtirish uchun Osiyo taraqqiyot bankining jami 106,80 mln. AQSH dollari (shundan OATB “Qishloq qurilish bank” – 85,44 mln. AQSH dollari) miqdoridagi mablag‘larini jalb qilishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, joriy yilning 5 iyunida ATB “Qishloq qurilish bank” tomonidan Osiyo taraqqiyot bankining 129,4 mlrd. so‘m yoki 56,2 mln. AQSH dollari miqdoridagi mablag‘lari jalb qilindi va ushbu mablag‘lar uy-joylar qurilishini moliyalashtirish uchun yo‘naltirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida 2014 yil 5 martda (№EDO-05/1-748) o‘tkazilgan yig‘ilish bayoniga muvofiq 2014 yil Dasturi ijrosining borishini nazorat qilish, muvofiqlashtirish va bu borada hokimliklarga ko‘maklashish maqsadida bankning mas‘ul xodimlari muntazam ravishda joylarga xizmat safariga yuborilib, aniqlanayotgan kamchilik va muammolarni zudlik bilan bartaraf qilish bo‘yicha barcha zaruriy choralar ko‘rilmogda.

2014 yilning 1 iyul holatiga 2015 yil Dasturi bo‘yicha qishloq joylarda qurilishi rejalashtirilayotgan 12100 ta uy-joylar uchun 2294 ta fuqarolarning 42,4 mlrd. so‘m yoki 7,8 foiz miqdorida boshlang‘ich badal mablag‘lari shakllantirildi.

Pul muomalasini barqarorlashtirish borasida

OATB “Qishloq qurilish bank” tomonidan bugungi kunda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining pul muomalasi tizimini takomillashtirish, pul mablag‘larining bankdan tashqari aylanmasini qisqartirish va banklardagi depozit hisobvaraqlardan naqd pul to‘lovlarini uzluksiz ta‘minlab borishning kafolatlariga doir farmon va qarorlari ijrosini ta‘minlab borish maqsadida muayyan darajada samarali ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

SHu o‘rinda, bankning mintaqaviy va tuman filiallari tomonidan 2014 yilning 1 iyul holatiga “Qishloq qurilish bank” tizimi bo‘yicha jami 5236 ta mijozlar mavjud bo‘lib, yil boshiga nisbatan 507 taga ko‘payishiga erishildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2011-2015 yillarda Respublika Moliya-bank tizimini isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida” 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli Qarorida belgilangan parametrlarga erishish va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholi va xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarining bo‘sh pul mablag‘larini tijorat banklaridagi depozitlarga jalb qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2009 yil 6 apreldagi PQ-1090-sonli Qarori ijrosini ta‘minlash, hamda bank omonatlari tarkibida muddatli va jamg‘armali omonatlar salmog‘ini oshirish maqsadida, joriy yilning o‘tgan davrida Omonatchilar va kreditorlarning mablag‘larini monitoring qilish boshqarmasi tomonidan bir qancha milliy valyutada muddatli “Bahor ifori”, “Navro‘zing muborak”, “Mag‘rur yurt farzandi”, “Fayzli”, “YAngilik”, “Nuroniy”, “Niyat” va jamg‘armali “Talaba” kabi yuqori foizli omonat turlari joriy qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 19 apreldagi PQ-1325-sonli Qarori ijrosi yuzasidan naqd pul mablag‘larining bankdan tashqari aylanmasini qisqartirish, naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini takomillashtirish borasida ham bank tomonidan izchil faoliyat yuritildi. Xususan, muomaladagi bank plastik kartochkalarining umumiy soni 335 mingtadan oshdi. 2014 yilning 6 oyi davomida bank plastik kartochkalari hisobraqamlariga 334,1 mlrd. so‘mlik mablag‘lar o‘tkazilgan. Bank tomonidan yilning o‘tgan davri davomida 50 000 donadan ortiq plastik kartochkalar muomalaga chiqarilib, 1200 ta mobil terminallar bank filiallariga etkazib berildi.

O‘z navbatida, bank tomonidan xizmat ko‘rsatiluvchi 2000 ga yaqin mijozlar bilan hamkorlikda “Ish haqi loyihasi” doirasida amalga oshirilayotgan tadbirlar plastik kartochka egalariga bank chakana xizmatlar bozorining faol ishtirokchisiga aylanish, naqd pullarni bank aylanmasiga jalb etish va ularni samarali joylashtirish imkonini bermoqda.

Terminallar tarmog'ini kengayishi, ulardan samarali foydalanish bo'yicha tashkil etilgan tadbirlar natijasida ular orqali o'tkazilayotgan to'lovlarni bir necha barobarga oshishi kuzatildi. Jumladan, savdo va xizmat ko'rsatish ob'ektlariga o'rnatilgan terminallar orqali 2013 yilning olti oyi davomida 317,1 mlrd. so'mlik tranzaksiyalar amalga oshirilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2014 yilda 198,4 mlrd.so'mga oshib, 575,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

“Internet-banking”, “SMS-banking” kabi bank xizmat turlari doirasi kengaytirilib, 2014 yil 20 iyun xolatiga “Internet-banking” tizimi joriy qilingan mijozlar soni 1500 taga, SMS-banking joriy qilingan mijozlar soni 12 000 taga etdi. Bugungi kunda bankimizda masofadan bank xizmatlari ko'rsatish tizimining yangi turi “SMS-to'lov” tizimini tadbiq etish ishlari amalga oshirilayotgan bo'lib, ushbu dasturni yaratuvchi korxonada “Marokand” firmasi bilan xamkorlikda tizimni ishlash jarayoni test sinovidan o'tkazilmoqda. Bundan tashqari, MCHJ “Click” bilan birgalikda bankimiz o'z mijozlariga “onlayn” kartochnalari orqali to'lovlarni amalga oshirish tizimini tadbiq etgan bo'lib, hozirda barcha bank mijozlari turli ko'rinishdagi to'lovlarni o'z mobil apparatlari orqali o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar.

Fuqarolardan bank rahbariga to'g'ridan-to'g'ri elektron murojaatlarni qabul qilish uchun bank rasmiy saytida rqqb@qqb.uz elektron pochta ochilib, barcha murojaatlarni tezkor ravishda qayta ishlash tartibi yo'lga qo'yildi. Bundan tashqari, barcha bank filiallarida fuqarolarning bankka elektron shaklda bo'ladigan murojaatlari uchun alohida elektron pochta ochilgan bo'lib, ushbu elektron pochta bo'yicha ma'lumotlar rasmiy veb-saytda ko'rsatib o'tilgan.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga yangidan yangi xizmat turlarini kiritib borish doimo amalga oshirib borilmoqda hamda hozirga kelib tadbiq etilgan interaktiv xizmat turlari soni 5 taga etdi. Portal orqali kelayotgan barcha murojaatlar ustidan bankda tayinlangan ma'sul xodimlar tomonidan nazorat o'rnatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.04.2014 yildagi “Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish va davlat xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq tartibotlarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2164-sonli qarori talablaridan kelib, joriy yil 1 iyundan boshlab tadbirkorlik sub'ektlariga "bir darcha" tamoyili bo'yicha elektron shaklda milliy valyutada bir yilgacha bo'lgan muddatga kredit olishga doir hujjatlarni taqdim etish amaliyoti joriy qilindi. Bunda, tadbirkorlik subektlari bankning rasmiy veb sayti vositasida, qulaylashtirilgan interfeys orqali bir yilgacha kredit olish uchun

barcha kerakli ma'lumotlarni "onlayn" tarzida kiritish hamda bank bo'limlariga borish uchun sarflanadigan resurslarni tejash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bankning milliy va xalqaro reyting ko'rsatkichlarini yanada oshirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar natijasida hamda moliya xizmatlari bozorida tutgan mavqei va faoliyatida qo'lga kiritilayotgan ijobiy natijalar inobatga olinib, 2013 yilning dekabr oyida "Moody's Investors Service" xalqaro reyting kompaniyasi tomonidan bankning milliy valyutadagi depozitlarining uzoq muddatli reytingini B2 darajadan V1 darajaga ko'tardi.

SHuningdek, xorijiy valyutadagi bank depozitlarining uzoq muddatli reytingini B2, moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichini E+ darajada qayta tasdiqladi.

Barcha reytinglar prognozi: Barqaror

Bank axborot xizmati